**“Hududgazta’minot” AJning affillangan shaxslar bilan tuziladigan bitimlarni o‘rganib chiqish komissiyasining faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida**
**TARTIB**

I. **Umumiy qoyidalar**

1. Mazkur Tartib “Hududgazta’minot” AJning affillangan shaxslar bilan tuziladigan bitimlarni o‘rganib chiqish komissiyasining faoliyatini tashkil etish masalalarini tartibga soladi.

2. Ushbu tartibda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

**Komissiya** — affillangan shaxslar bilan tuziladigan bitimlarni o‘rganish komissiyasi;

**Jamiyat bitim tuzishidan manfaatdor shaxslar –** “Hududgazta’minot” AJ (keyingi o‘rinda Jamiyat)ning affillangan shaxslari;

**Jamiyatning affillangan shaxslari** — Jamiyatning affillangan shaxslari ro‘yxatiga kiritilgan shaxslar;

**Taklif etilayotgan bitim to‘g‘risida xabardor etish** — Tomonlardan birining ikkinchisiga bitim tuzishda affillangan ekanligi to‘g‘risida tuzilishi kutilayotgan bitim xaqidagi ma’lumotlarni, shu jumladan bitimda ishtirok etayotgan shaxslar, bitim predmeti to‘g‘risidagi ma’lumotlarni, tegishli shartnomaning muhim shartlarini batafsil ko‘rsatgan holda yozma bildirish yuborishi;

**Yirik bitim** — Jamiyat tomonidan mol-mulkni olish yoki uni boshqa shaxsga berish yoxud mol-mulkni boshqa shaxsga berish ehtimoli bilan bog‘liq bitim (shu jumladan qarz, kredit, garov, kafillik) yoki o‘zaro bog‘langan bir nechta bitim, agar boshqa shaxsga berilayotgan mol-mulkning yoki olinayotgan mol-mulkning balans qiymati bunday bitimlarni tuzish to‘g‘risidagi qaror qabul qilinayotgan sanada jamiyat sof aktivlari miqdorining o‘n besh foizidan ortig‘ini tashkil etsa, yirik bitim deb hisoblanadi, kundalik xo‘jalik faoliyatini yuritish jarayonida tuziladigan bitimlar hamda aksiyalarni va boshqa qimmatli qog‘ozlarni joylashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan bitimlar bundan mustasno.

## II. Affillangan shaxs bilan tuzilishi kutilayotgan bitimni o‘rganish.

3. Jamiyatning boshqarma va bo‘limlari tomonidan biron bir bitim tuzish zarur bo‘lganda, bitim tuzish bilan bog‘liq materiallar ko‘rib chiqish uchun Komissiyaga taqdim etiladi.

4. Komissiya tuzilishi ko‘zda tutilayotgan bitimning predmeti va qiymatini o‘rganib chiqib, tomonlarning affillanganligini tahlil qiladi. Agar affillangan shaxs bilan bitim bir vaqtning o‘zida yirik bitim bo‘lsa O‘zbekiston Respublikasi “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunning 8-bobida belgilangan yirik bitim tuzish qoidalari qo‘llaniladi.

5. Komissiya tomonidan o‘rganish yozma bildirish olinganidan keyin uch ish kuni ichida amalga oshiriladi.

6. Komissiya ishini uning raisi tashkil qiladi va majlislarni chaqiradi hamda ularga raislik qiladi.

7. Komissiya yig‘ilishida bitim predmetiga qarab quyidagilar ishtirok etishi mumkin:

Suyultirilgan gaz yetkazilishi muhandislik inshootlaridan foydalanishni tashkillashtirish va muvofiqlashtirish boshqarmasi boshlig‘i, Gaz ta’minoti obyektlarini texnik jihatdan tartibga solish boshqarmasi boshligi, Qurilish va ta’mirlash boshqarmasi boshlig‘i, Fuqaro muhofazasi, favqulodda holatlarni o‘rganish va ularni oldini olish bo‘limi boshlig‘i, Biznesni strategik rivojlantirish va investitsiya bo‘limi boshlig‘i, Mehnat muhofazasi va sanoat xavfsizligi bo‘limi boshlig‘i, ichki audit xizmati rahbari.

Komissiya raisining qaroriga ko‘ra mazkur bitimni o‘rganishga qo‘shimcha ravishda Jamiyatning boshqa xodimlari jalb qilinishi mumkin.

8. Affillangan shaxs bilan tuzilishi kutilayotgan bitimni Komissiya tomonidan o‘rganish natijalari bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi va bitimni o‘rganishda ishtirok etgan barcha shaxslar tomonidan imzolanadi.

Bunda, bayonnomada quyidagi axborot bo‘lishi kerak:

bitim predmeti;

bitimning tomonlari;

bitimning qiymati (summasi);

shartnomaning shartlari;

bitimning yuridik, moliyaviy, texnik va boshqa muhim jihatlari;

bitimning jamiyat faoliyatiga ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan ta’siri nazarda tutilgan bo‘lishi kerak.

9. Komissiya tomonidan affillangan shaxs bilan tuzish taklif etilgan bitim bayonnomasi materiallar bilan birgalikda keyinchalik belgilangan tartibda Jamiyat aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi yoki Kuzatuv kengashining majlisiga tasdiqlash uchun kiritiladi.

## III.Affillangan shaxslar bilan bitimlar tuzishdagi istisnolar

10. Ushbu qoidalar quyidagilarga nisbatan tatbiq etilmaydi:

- tuzilishidan jamiyatning barcha aksiyadorlari manfaatdor bo‘lgan bitimlarga;

- jamiyatning ishlab chiqarish va xo‘jalik ehtiyojlari uchun tuziladigan bitimlarga, agar qonun hujjatlariga ko‘ra realizatsiya qilishning maxsus tartibi belgilanadigan monopol mahsulot, moddiy-texnika resurslarining strategik turlari bitim predmeti bo‘lsa;

- birja va kimoshdi savdolari orqali tuziladigan bitimlarga, agar jamiyatning ishlab chiqarish va xo‘jalik ehtiyojlari uchun foydalaniladigan xom ashyo va materiallar, shuningdek jamiyat tomonidan ishlab chiqariladigan tayyor mahsulot bitim predmeti bo‘lsa;

- jamiyat tomonidan joylashtirilayotgan qimmatli qog‘ozlarni olishga doir imtiyozli huquqni amalga oshirishda;

- jamiyat joylashtirilgan aksiyalarni olganda;

- jamiyatni qayta tashkil etishga doir tartib-taomillarni amalga oshirishda;

- aksiyalarni aksiyadorlar o‘rtasida joylashtirishda;

- qimmatli qog‘ozlarni qimmatli qog‘ozlarning birja bozorida va uyushgan birjadan tashqari bozorida realizatsiya qilishda;

- jamiyat va affillangan shaxs o‘rtasidagi bitimni (bitimlarni) ma’qullash xaqida jamiyat kuzatuv kengashining yoki aksiyadorlar umumiy yig‘ilishida qabul qilingan qarori mavjud bo‘lganda.